O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

BO‘LG‘USI PEDAGOGLARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILMASI

Ergashev Nozim Nabiyevich

Qo‘qon davlat universiteti, doktorant. **e-mail:** nozimnns@gmail.com

Annotatsiya.

Maqolada bo‘lg‘usi pedagoglarning tadqiqotchilik kompetentligi tushunchasi aniqlashtiriladi. Kompetensiya, kompetentlik, tadqiqot faoliyati va tadqiqotchilik ko‘nikmalari tushunchalari bir-biridan farqlanadi, tadqiqotchilik kompetentligining ishchi ta’rifi beriladi. Pedagogik tadqiqot metodologiyasining tuzilmasidan kelib chiqib, bo‘lg‘usi pedagog egallashi kerak bo‘lgan o‘n to‘rtta tadqiqotchilik fazilati ajratiladi va ular motivatsion, kognitiv, faoliyatli hamda refleksiv komponentlar bo‘yicha guruhlanadi. Taklif etilgan tuzilma xorijiy modellar (RSD va RMRC-K) bilan qiyoslanadi hamda uning cheklovlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik kompetentligi, bo‘lg‘usi pedagog, kompetensiya, kompetentlik, tadqiqotchilik fazilatlari, komponent, refleksiya.

ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ: СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ И ЕГО СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ

Эргашев Нозим Набиевич

Кокандский государственный университет, докторант.

Аннотация.

В статье уточняется понятие исследовательской компетентности будущих педагогов. Разграничиваются понятия компетенции, компетентности, исследовательской деятельности и исследовательских умений, а также предлагается рабочее определение исследовательской компетентности. На основе структуры методологии педагогического исследования выделяются четырнадцать исследовательских качеств, которыми должен обладать будущий педагог. Данные качества систематизируются по четырём компонентам: мотивационному, когнитивному, деятельностному и рефлексивному. Предложенная структура сопоставляется с зарубежными моделями (RSD и RMRC-K), а также рассматриваются её ограничения.

Ключевые слова: исследовательская компетентность, будущий педагог, компетенция, компетентность, исследовательские качества, компонент, рефлексия.

RESEARCH COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS: CONCEPTUAL CONTENT AND STRUCTURAL COMPONENTS

Ergashev Nozim Nabiyevich

Kokand State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article clarifies the concept of research competence among future teachers. It distinguishes between the concepts of competency, competence, research activity, and research skills, and provides a working definition of research competence. Based on the structure of pedagogical research methodology, fourteen research-related qualities that future teachers should acquire are identified and grouped into four components: motivational, cognitive, activity-based, and reflective. The proposed structure is compared with international models (RSD and RMRC-K), and its limitations are discussed.

Keywords: research competence, future teacher, competency, competence, research-related qualities, component, reflection.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘quv jarayonini ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan integratsiyalash va oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish vazifalari qo‘yilgan [1]. Pedagogika yo‘nalishlarida talaba kurs ishi va bitiruv malakaviy ishini mustaqil bajara olishi,

maktabda ishlay boshlagach esa o‘z darsini kuzatib, to‘plagan dalillariga tayanib qaror qabul qila olishi kerak. L. Stenhouse o‘quv dasturini har bir o‘qituvchi o‘z sinfida sinab ko‘radigan farazga o‘xshatgan va shu sababli o‘qituvchini o‘z amaliyotining tadqiqotchisi deb hisoblagan [2].

Buning uchun “tadqiqotchilik kompetentligi” tushunchasining o‘zi aniq bo‘lishi lozim. U kompetensiya, tadqiqot faoliyati va tadqiqotchilik ko‘nikmalari tushunchalariga yaqin turadi, shuning uchun ularni bir-biridan farqlash zarur. Ta’rif noaniq qolsa, talabada aynan nimani rivojlantirish kerakligi ochiq qoladi, rivojlanganlik darajasini esa o‘lchab bo‘lmaydi.

Maqolaning maqsadi bo‘lg‘usi pedagoglarning tadqiqotchilik kompetentligi tushunchasini yondosh tushunchalardan farqlash, uning ishchi ta’rifini berish va tarkibiy tuzilmasini asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Ish nazariy tahlilga asoslangan. Manbalar uch guruhga bo‘lib o‘rganildi: kompetensiya va kompetentlik nazariyasiga oid ishlar [3; 4; 5], faoliyat va refleksiya psixologiyasiga oid ishlar [6; 7; 8; 9], talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini modellashtirish va o‘lchashga oid xorijiy tadqiqotlar [10; 11]. Ta’riflar qiyosiy tahlil qilindi, tushunchalar hajmi va mazmuniga ko‘ra farqlandi.

Tadqiqotchilik fazilatlari ro‘yxatini tuzishda pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi darsligida berilgan tadqiqot bosqichlari va metodologik apparat tuzilmasi asos qilib olindi [12]. Fazilatlar komponentlar bo‘yicha tasniflash metodi yordamida guruhlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kompetensiya va kompetentlik

D. McClelland 1973-yilda intellekt testlari o‘rniga kompetensiyalarni baholashni taklif qilgan. Uning fikricha, kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni kompetensiyalar aniqroq bashorat qiladi [3]. Shundan keyin ta’lim natijasini o‘zlashtirilgan bilim hajmi bilan birga, bilimni vaziyatda qo‘llay olish orqali ham belgilash g‘oyasi keng tarqaldi.

I. A. Zimnyaya kompetentlikni besh jihat orqali tavsiflaydi: uni namoyon qilishga tayyorlik (motivatsion jihat), mazmunini bilish (kognitiv jihat), turli vaziyatlarda namoyon qilish tajribasi (xulq-atvor jihati), mazmuniga va qo‘llanish obyektiga munosabat (qadriyatli-ma’noviy jihat), jarayon va natijani emotsional-irodaviy boshqarish [4]. Bu yondashuv kompetentlikni bilim va ko‘nikmalar yig‘indisidan kengroq, shaxsning yaxlit xususiyati sifatida ko‘rishga asos beradi.

A. V. Xutorskoy ikki tushunchani farqlaydi. Kompetensiya ta’lim oluvchining tayyorgarligiga oldindan qo‘yilgan talab, ya’ni me’yordir. Kompetentlik shaxsning shu kompetensiyani egallaganini bildiradi va uning kompetensiyaga hamda faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini ham o‘z ichiga oladi [5]. Biz shu farqni qabul qilamiz. “Tadqiqotchilik kompetensiyasi” deganda o‘quv dasturida yozilgan talabni, “tadqiqotchilik kompetentligi” deganda talabaning o‘zida shakllangan sifatni tushunamiz.

TADQIQOT, TADQIQOT FAOLIYATI VA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARI

J. Creswell tadqiqotni mavzu yoki muammoni chuqurroq tushunish uchun ma’lumot to‘plash va tahlil qilish bosqichlaridan iborat jarayon deb ta’riflaydi. U jarayonni uch qadamga ajratadi: savol qo‘yish, savolga javob berish uchun ma’lumot to‘plash, javobni taqdim etish [13: 3]. Bu ta’rifni aniqlashtirib, biz tadqiqotni quyidagicha tushunamiz: tadqiqot muayyan fan yo‘nalishida fan obyektini tadqiqot metodlari orqali o‘rganib, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tajriba asosida uning haqqoniyligini asoslash jarayonidir. Creswell ta’rifidan farqi shundaki, bu yerda natijaning haqqoniyligini asoslash alohida talab sifatida kiritilgan.

Tadqiqot faoliyati shu jarayonni amalga oshiruvchi harakatlar tizimidir. A. N. Leontyev faoliyat tuzilmasini motiv, maqsad, harakat va operatsiya orqali tavsiflaydi [6], ya’ni tadqiqot faoliyati ham motivdan boshlanadi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari faoliyatning alohida harakatlarini bajarish usullaridir. A. S. Obuxov tadqiqot faoliyatida shakllanadigan maxsus qobiliyat va ko‘nikmalar qatoriga muammoni ko‘rish, savol berish, farazni ilgari surish, tushunchalarga ta’rif berish, tasniflash, kuzatish va tajriba o‘tkazish, materialni tizimlashtirish, xulosa chiqarish hamda o‘z fikrini tushuntirish va himoya qilishni kiritadi [14]. Tushunchalar orasidagi farq 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval. Tadqiqotchilik kompetentligi va yondosh tushunchalar

Tushuncha	**Mazmuni**	**Tadqiqotchilik kompetentligiga munosabati**
Kompetensiya	Tayyorgarlikka oldindan qo'yilgan talab (me'yor)	Kompetentlik shu talabga nisbatan baholanadi
Tadqiqot	Fan obyektini metodlar yordamida o'rganish va natijaning haqqoniyligini asoslash jarayoni	Kompetentlik qo'llanadigan soha
Tadqiqot faoliyati	Shu jarayonni amalga oshiruvchi harakatlar tizimi	Kompetentlik shu faoliyatda shakllanadi va namoyon bo'ladi

Tushuncha	**Mazmuni**	**Tadqiqotchilik kompetentligiga munosabati**
Tadqiqotchilik ko'nikmalari	Alohida tadqiqot harakatlarini bajarish usullari	Kompetentlikning faoliyatli komponentiga kiradi
Tadqiqotchilik kompetentligi	Talabada shakllangan integrativ sifat	Motiv, bilim, ko'nikma va refleksiyani birlashtiradi

Tadqiqotchilik kompetentligining ishchi ta'rifi

Yuqoridagi farqlarga tayanib, quyidagi ishchi ta'rifni taklif qilamiz. Boʻlgʻusi pedagogning tadqiqotchilik kompetentligi uning pedagogik muammoni koʻra olishi, uni ilmiy metodlar yordamida mustaqil oʻrganishi, natijani asoslashi va oʻz kasbiy faoliyatida qoʻllashini ta'minlaydigan integrativ sifatdir. U motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarning birligidan iborat.

Ta'rif kompetentlikni mustaqillik bilan bogʻlaydi, chunki oʻqituvchi rahbarligida, namuna boʻyicha bajarilgan ish kompetentlikning faqat past darajasini koʻrsatadi. U natijani kasbiy faoliyatga ham bogʻlaydi: boʻlgʻusi pedagog uchun tadqiqotning maqsadi koʻpincha oʻz dars amaliyotini yaxshilashdir. Ta'rifda toʻrt komponent nomlangani sababli har bir komponent uchun alohida koʻrsatkich belgilash va kompetentlikni oʻlchash mumkin boʻladi.

Oʻn toʻrtta tadqiqotchilik fazilati

Kompetentlikni oʻlchash uchun uning mazmunini kuzatish mumkin boʻlgan harakatlar darajasigacha aniqlashtirish kerak. Buning uchun pedagogik tadqiqot metodologiyasining tuzilmasiga tayandik [12]. Tadqiqotchi metodologik apparatni quradi, manbalar bilan ishlaydi, tajriba-sinovni loyihalaydi, oʻtkazadi va natijasini baholaydi. Shu ketma-ketlikdan boʻlgʻusi pedagog egallashi kerak boʻlgan oʻn toʻrtta fazilat ajratildi. Bu yerda "fazilat" soʻzi bilim, koʻnikma va qobiliyatlarni birlashtiruvchi umumiy nom sifatida ishlatiladi.

1. Tadqiqot mohiyatini anglash.
2. Tadqiqot kategoriyalari va tushunchalarini oʻzaro ajrata olish.
3. Ilmiy dalillarni topa olish va ular bilan ishlay olish.
4. Tadqiqot muammosini toʻgʻri tanlay olish.
5. Tadqiqot mavzusini shakllantira olish.
6. Tadqiqotning dolzarbligini anglash va asoslay olish.
7. Tadqiqot obyekti va predmetini toʻgʻri ajrata olish.
8. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini toʻgʻri qoʻya olish.
9. Tadqiqot farazini yarata olish.
10. Pedagogik tadqiqotning umumiy tamoyillariga rioya qilish.
11. Adabiyot va arxiv materiallarini tanlay olish hamda oʻrgana olish.
12. Pedagogik tajriba-sinov dasturini ishlab chiqa olish.
13. Ilmiy tadqiqot jarayonini modellashtira olish.
14. Tajriba-sinov ishlarini tashkil eta olish va samaradorligini baholay olish.

Tarkibiy komponentlar

Tizimli yondashuvga koʻra, butunning xossasi qismlar xossalarining oddiy yigʻindisiga teng boʻlmaydi [15]. Shu sababli toʻrt komponentni bir-birini taqozo etuvchi tizim sifatida koʻrib chiqamiz (2-jadval).

Motivatsion komponent tadqiqot faoliyatiga qiziqish, yangilikka intilish, fan qadriyatini anglash va izlanishga ichki ehtiyojni qamraydi. A. A. Verbitskiy va N. A. Bakshayeva talabaning oʻquv motivatsiyasi asta-sekin kasbiy motivatsiyaga aylanishini mutaxassis shakllanishining sharti deb koʻrsatadi [16]. Oʻn toʻrt fazilatning hech biri bevosita shu komponentga kirmaydi, lekin ularning har biri izlanishga ehtiyoj boʻlgandagina namoyon boʻladi.

Kognitiv komponent tadqiqot nima ekanini, uning kategoriya va tushunchalarini, dolzarblik qanday asoslanishini bilish hamda ilmiy dalil bilan ishlashni oʻz ichiga oladi (1, 2, 3 va 6-fazilatlar).

Faoliyatli komponentga metodologik apparatni qurish (4, 5, 7, 8, 9-fazilatlar), manbalar bilan ishlash (11-fazilat), tajriba-sinovni loyihalash, modellashtirish va tashkil etish (12, 13, 14-fazilatlar) kiradi. P. Ya. Galperin nazariyasiga koʻra, aqliy harakat avval tashqi, moddiylashgan shaklda oʻzlashtiriladi, keyin nutq orqali ichki, aqliy shaklga oʻtadi [7]. Tadqiqotchilik koʻnikmalari uchun bu quyidagini bildiradi: talaba avval namuna boʻyicha ishlaydi, keyin harakatini ogʻzaki asoslaydi, shundan soʻng uni mustaqil bajaradi. Ilmiy muloqot, ya'ni natijani yozma va ogʻzaki taqdim etish hamda jamoada ishlash ham shu komponentga kiritildi, chunki u tadqiqot faoliyatidan tashqarida namoyon boʻlmaydi.

Refleksiv komponent tadqiqotning umumiy tamoyillariga rioya qilishni (10-fazilat) va oʻz ishining samaradorligini xolis baholashni (14-fazilatning ikkinchi qismi) qamraydi. J. Dewey refleksiv tafakkurni har qanday e'tiqod yoki bilimni uning asoslari va undan kelib chiqadigan xulosalar nuqtayi nazaridan faol, izchil va sinchiklab koʻrib chiqish deb ta'riflagan [8: 6]. D. Schön kasb egasining ish jarayonidagi refleksiyasini ishdan keyingi refleksiyadan farqlagan [9]. Boʻlgʻusi pedagogga ikkalasi ham kerak: u tadqiqot davomida oʻz harakatini kuzatib boradi, ish tugagach esa nimani boshqacha qilish mumkinligini tahlil qiladi.

2-jadval. Tadqiqotchilik kompetentligining komponentlari va ularga mos fazilatlar

Komponent	Mazmuni	Mos fazilatlar
Motivatsion	Tadqiqotga qiziqish, yangilikka intilish, fan qadriyatini anglash, izlanishga ichki ehtiyoj	Barcha fazilatlarning asosi
Kognitiv	Tadqiqot mohiyati, kategoriyalari, dolzarblikni asoslash, ilmiy dalil haqidagi bilimlar	1, 2, 3, 6
Faoliyatli	Metodologik apparatni qurish, manbalar bilan ishlash, tajriba-sinovni loyihalash va o'tkazish, natijani taqdim etish	4, 5, 7, 8, 9, 11, 12, 13, 14
Refleksiv	Tamoyillarga rioya qilish, o'z ishini xolis baholash, xatoni topish va tuzatish	10, 14 (baholash qismi)

Komponentlar orasidagi bog‘lanishni quyidagicha tasavvur qilamiz. Qiziqish bilim izlashga undaydi, bilim harakat uchun asos bo‘ladi, harakat natijasi refleksiya orqali baholanadi, baho esa keyingi izlanish motivini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Bu taxmin to‘g‘ri bo‘lsa, bitta komponentning zaifligi qolganlariga ham ta’sir qiladi. Masalan, metodlarni yaxshi biladigan, lekin izlanishga qiziqmaydigan talaba tadqiqotni faqat topshiriq berilganda bajaradi.

Xorijiy modellar bilan qiyos

J. Willison va K. O’Regan taklif qilgan RSD (Research Skill Development) modeli tadqiqotning olti jihatini va talaba mustaqilligining besh darajasini ajratadi. Darajalar o‘qituvchi to‘liq yo‘naltiradigan yopiq izlanishdan talabaning o‘zi boshlaydigan ochiq izlanishgacha boradi [10]. F. Böttcher va F. Thiel modeli (RMRC-K) talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini besh o‘lcham bo‘yicha tavsiflaydi: muammoning o‘rganilganlik holatini tahlil qilish, metodologik ko‘nikmalar, natijalar ustida refleksiya, muloqot ko‘nikmalari va sohaga oid bilim. Shu model asosida tuzilgan R-Comp so‘rovnomasi bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi 391 talabada sinovdan o‘tkazilgan [11]. Modellar qiyosi 3-jadvalda berilgan.

3-jadval. Tadqiqotchilik kompetentligi tuzilmasiga oid modellar qiyosi

Model	Tarkibi	Taklif etilgan tuzilmadan farqi
RSD modeli [10]	Tadqiqotning olti jihati, mustaqillikning besh darajasi	Ko'nikmalar va mustaqillik darajalari batafsil ochilgan, motivatsiya alohida ajratilmagan
RMRC-K modeli [11]	Besh o'lcham: o'rganilganlik holatini tahlil qilish, metodlar, refleksiya, muloqot, sohaga oid bilim	Muloqot alohida o'lcham, motivatsiya kiritilmagan
I.A. Zimnyaya tavsifi [4]	Kompetentlikning besh jihati	Har qanday kompetentlik uchun umumiy, tadqiqotga xos mazmun ochilmagan
Taklif etilgan tuzilma	To'rt komponent, o'n to'rt fazilat	Motivatsiya alohida komponent, muloqot faoliyatli komponent tarkibida

Baholash va refleksiya RSD modelida ham, RMRC-K modelida ham alohida ajratilgan. Bu refleksiv komponentni alohida saqlash o‘rinli ekanini ko‘rsatadi. Farq ikki jihatda ko‘rinadi. Ko‘rib chiqilgan ikki xorijiy model asosan ko‘nikma va bilimni tavsiflaydi, motivatsiyani kompetentlik tarkibiga kiritmaydi. Biz uni alohida komponent sifatida saqladik, chunki Zimnyaya tavsifida tayyorlik kompetentlikning birinchi jihati, Leontyev tuzilmasida esa faoliyat motivdan boshlanadi [4; 6].

Ikkinchi farq muloqotga tegishli. Böttcher va Thiel uni alohida o‘lcham sifatida baholaydi, bizning tuzilmada esa u faoliyatli komponent tarkibida qaraladi. Bu yechimning kamchiligi ham bor: muloqot ko‘nikmalari alohida ball bilan baholanmaydi. Shu sababli baholashda natijani taqdim etish faoliyatli komponentning alohida ko‘rsatkichi sifatida belgilanishi kerak.

RSD modelidagi mustaqillik darajalari kompetentlikning rivojlanish darajalarini tavsiflashda foydali. Past darajada talaba namuna bo‘yicha, o‘qituvchi rahbarligida ishlaydi, yuqori darajada muammoni o‘zi qo‘yadi va tadqiqotni o‘zi rejalashtiradi.

Tuzilmaning cheklovlari

Tuzilma nazariy tahlil natijasidir. To‘rt komponentning o‘lchovda bir-biridan ajralishini empirik tekshirish kerak. Böttcher va Thiel o‘z modelining besh o‘lchamli tuzilmasini tasdiqlovchi faktor tahlili bilan tekshirgan [11], biz taklif qilgan

tuzilma uchun bunday tekshiruv hali o‘tkazilmagan. Komponentlar orasidagi bog‘lanish ham taxmin darajasida qolmoqda.

Fazilatlar komponentlar bo‘yicha teng taqsimlanmagan. To‘qqiztasi faoliyatli komponentga to‘g‘ri keladi, refleksiv komponentga esa bitta fazilat va yana bir fazilatning bir qismi mos keladi. Shu sababli motivatsion va refleksiv komponentlar uchun ko‘rsatkichlar fazilatlar ro‘yxatidan tashqarida, qo‘shimcha belgilanishi lozim.

Raqamli muhitda ishlash, ya’ni elektron bazalardan manba izlash va manbaning ishonchliligini baholash alohida komponent sifatida ajratilmadi. U kognitiv va faoliyatli komponentlar mazmuniga kiritilgan.

XULOSA

1. Kompetensiya tayyorgarlikka qo‘yilgan talab, kompetentlik esa talabada shakllangan sifatdir. Kompetentlik tadqiqot faoliyatida shakllanadi va namoyon bo‘ladi, tadqiqotchilik ko‘nikmalari uning faoliyatli komponentiga kiradi.

2. Bo‘lg‘usi pedagogning tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammoni ko‘ra olish, uni ilmiy metodlar yordamida mustaqil o‘rganish, natijani asoslash va kasbiy faoliyatda qo‘llashni ta’minlaydigan integrativ sifat sifatida ta’riflandi.

3. Kompetentlik mazmuni o‘n to‘rtta fazilat orqali ochildi. To‘rttasi kognitiv, to‘qqiztasi faoliyatli komponentga, bittasi va yana bir fazilatning baholash qismi refleksiv komponentga mos keladi. Motivatsion komponent barcha fazilatlarning asosi hisoblanadi.

4. Taklif etilgan tuzilma RSD va RMRC-K modellaridan motivatsiyani alohida komponent sifatida kiritgani va muloqotni faoliyatli komponent tarkibida ko‘rgani bilan farq qiladi. Keyingi vazifa har bir komponent uchun mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish hamda tuzilmani empirik tekshirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. Stenhouse L. An Introduction to Curriculum Research and Development. – London: Heinemann, 1975. – 248 p.

3. McClelland D. C. Testing for Competence Rather Than for "Intelligence" // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28, № 1. – P. 1–14.

4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.

5. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

6. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.

7. Гальперин П. Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий // Исследования мышления в советской психологии. – Москва: Наука, 1966. – С. 236–277.

8. Dewey J. How We Think. – Boston: D. C. Heath & Co., 1910. – 224 p.

9. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.

10. Willison J., O'Regan K. Commonly Known, Commonly Not Known, Totally Unknown: A Framework for Students Becoming Researchers // Higher Education Research & Development. – 2007. – Vol. 26, № 4. – P. 393–409.

11. Böttcher F., Thiel F. Evaluating Research-Oriented Teaching: A New Instrument to Assess University Students' Research Competences // Higher Education. – 2018. – Vol. 75, № 1. – P. 91–110. – DOI: 10.1007/s10734-017-0128-y.

12. Xodjayev B. X., Choriyev A., Saliyeva Z. T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2018.

13. Creswell J. W. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. – 4th ed. – Boston: Pearson, 2012. – 650 p.

14. Обухов А. С. Развитие исследовательской деятельности учащихся. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Национальный книжный центр, 2015. – 280 с.

15. von Bertalanffy L. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968. – 289 p.

16. Вербицкий А. А., Бакшаева Н. А. Психология мотивации студентов: учебное пособие. – Москва: Логос, 2006. – 184 с.